

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR VA BOSHLANG`ICH SINF  
O`QUVCHILARI BILAN SHAXMAT TO`GARAGINI TASHKIL ETISH**

**Yaqubov Fazliddin**

O`zbekiston davlat jismoniy tarbiya  
va sport universiteti, Ilmiy rahbar

**Maxsudov Boboxon Shokirxon o`g`li**  
bakalavr 52-20 guruh talabasi

**Shodmonova Marjona Sunnatillo qizi**  
bakalavr 51-20 guruh talabasi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada “Maktabgacha yoshdagi bolalar va boshlang`ich sinf o`quvchilari bilan shaxmat to`garagini tashkil etish” hozirgi vaqtida yosh shaxmatchilarga yaratib berilgan e`tibor oshib bormoqda, biz yaratgan loyiha yosh shaxmatchilarning musobaqa vaqtlarida kerakli natijaga erishishni taminlaydi.

**Kalit so`zlar:** yosh shaxmatchilar, shaxmat to`garagi, jahon championlari, diqqat va e`tibor, shaxmat, shaxmat oyligi.

Mustaqillik yillarida Respublikamizda sportni ayniqsa bolalar sportini rivojlantirishga katta e`tibor qaratilmoqda. Jumladan, O`zbekiston Respublikasi va boshqa mamlakatlar tashabbusi bilan 2019-yil 2-dekabrdagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining shaxmatni rivojlantirish bo`yicha maxsus rezolyutsiya qabul qilinganligi hamda ushbu rezolyutsiyaga muvofiq 20-iyul Butunjahon Shaxmat kuni etib e`lon qilindi va O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” 2021 yil[1] 14-yanvardagi PQ-4954-son qarori hamda O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligining Xalq ta`limi tizimida shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish chora-tadbirlari to`g`risida [2] 2021 yil 18 yanvardagi 12 sonli buyrug`i aynan, maktab ta`lim tizimida asosiy vazifalarni bajarishga yo`naltirilgan. Bolalar uchun shaxmat o`ynashning afzalliklari shubhasizdir. Erta yoshdan boshlab, bola intellektual va shaxsan rivojlanishiga kuchli turki beradi. Bolada tafakkur faol rivojlanadi, diqqatni jamlash qobiliyati va xotirasi yaxshilanadi, hissiy barqarorlik, kuchli iroda, g`alaba qozonishga intilish va istak shakllanadi. Mag'lubiyatlar unga yo`qotishlarni qat'iyat bilan boshdan kechirishga, o`zini tanqid qilish bilan muomala qilishga va harakatlarini tahlil qilishga, kerakli tajribani toplashga o`rgatadi. Shaxmatning zarari odam kamharakat turmush tarzini boshlaydi, chunki o`yin ba'zan bir necha soat davom etadi. Bu diqqat, qat'iyat va har bir qadamni nihoyatda to'g`ri hisoblashni talab

qiladi. Shaxmatni yaxshi ko'radigan bolalar o'yinga diqqatlarini jalb qilishadi, bo'sh vaqtinini shaxmat kitoblarini o'qish, musobaqalar va mashg'ulotlar o'tkazish bilan o'tkazadilar, jismoniy rivojlanish va tayanch-harakat tizimini mustahkamlash haqida unutishadi. Shaxmatchi - jismoniy hujumlarga javob bera olmaydigan va o'zini himoya qila olmaydigan, qo'lting'ida shaxmat taxtasi bo'lgan ko'zoynakli ingichka odam degan stereotipni rivojlantirgani bejiz emas. Shaxmat foydali bo'lishi uchun, zararli emasligi uchun siz asosiy qoidaga rioya qilishingiz kerak - hamma narsa me'yorida yaxshi. Faoliyat va dam olish rejimini tashkil etish, qiziqishlar doirasini kengaytirish va jismoniy rivojlanish foyda maksimal darajada bo'lishiga va zarar minimal bo'lishiga intilish kerak.

### **Loyihatning maqsadi:**

O'zbekiston respublikasi bolalar sportini rivojlantirish, mакtabgacha yoshdagи bolalar o'rтasida sportning shaxmat turiga bo'lgan qiziqishini ommalashtirish, kelajakdagi sport zaxiralari uchun zamin yaratish, maktabgacha yoshdagи bolalar o'rтasida sportning shaxmat turini rivojlantirish maqsadida maktabgacha ta`lim muassasalarida hamda boshlang`ich sinf o`quvchilari bilan shaxmat tugaragini tashkil etish.

### **Loyihaning vazifalari:**

- 1) Yoshlarni Shaxmatga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun jahon championlari bilan bilan tez tez treninglar o'tkazish.

### **Loyihaning amalga oshirish mexanizmlari:**

**1-yo`nalish** - maktabgacha ta`lim tarbiyalanuvchilari hamda umumiy o'rta ta`lim maktablar o`quvchilari o'rтasida shaxmat oyligini o'tkazish.

**2-yo`nalish** – maktabgacha ta`lim tarbiyalanuvchilari o'rтasida shaxmat to`garaklarini ko`paytirish, yoshlarning davriga qarab bosqichma bosqich musobaqa va championatlar tashkillashtirish [Motivatsion rujni shakillantirish, raqiblari bilan bo'lgan bellashuvni tahlil qilib xulosa chiqarish. Championatlarda raqibi bilan bo`ladigan uchrashuvni oldindan ko`ra bilish, o`quv qo'llanmadan foydalanish] hamda Respublika va xalqaro musoboqlarda yaxshi natijalarga erishishni taminlab borish.

### **Loyihadan kutilayotgan natijalar va amalga oshirish bosqichlari:**

1. Sportchi xayoti davomida katta yutuqlarga erishishi va uning kelajakda Vatanimiz sha'nini munosib himoya qiladigan mukammal sportchi bo'lib yetishib chiqishi ehtimoli yuqori darajada bo'ladi.
2. Maktabgacha ta`lim tarbiyalanuvchilarini sog'ligi mustahkamlanadi, ularning mashg'ulotlarga o'zgacha yaxshi kayfiyat bilan yondashishiga va shaxmat sport o'yini elementlarini o'rganish samaradorligini oshirishga katta axamiyat qaratiladi.

3. Loyiha yakunida bolalarning aniqlangan shaxmat sporti natijalari hisobga olgan holda barcha ma`lumotlarni umumlashtirib, shaxmat sporti uchun ularni to`g`ri yo`lga yo`naltirish. Hurmatli pedagoglar, shaxmat o`yini ko`p asrlar davomida katta-kichikni qiziqtirgan va o`yinlar orasida eng ommalashgan bo`lib hisoblanadi. Shaxmat o`yini bolalarda xotirani mustahkamlaydi, fikrlash qobiliyati va tasavvurini rivojlantiradi. Shu bilan birga qiziqishni faollashtiradi, diqqat va e`tiborni jamlab olishga o`rgatadi.

Maktabgacha ta`lim muassasalarda “Shaxmat” to`garagi faoliyatini shaxmat bo`yicha zarur kasb ko`nikmalari va tajribaga ega bo`lgan malakali pedagog yuritadi.

Maktabgacha yoshdagি bolalar qiziquvchan va kuchli xotiraga ega bo`ladilar. Ular yangi mavzuni qiziqish bilan o`rganadilar.

5-6 yoshli bolalar hali yozish va o`qishni bilmaydilar. Ammo kattalar yordamida ushbu qo`llanma bilan kichkintoylarni tanishtirilsa, bolalarning qiziqishlari oshadi, harf va raqamlarni yozish mahoratiga ega bo`ladilar hamda shaxmat o`yinining asosiy qoidalarini bilib oladilar

Jami shohmot to`plamiga 32 ta dona kiradi – 16ta oq va 16ta qora donalar. Xar bir o`yinchida 1 shoh, 1 farzin, 2 rux, 2 fil, 2 ot, 8 shohmot piyodasi.

Shohmotda harbiy harakatlar maxsus to`rt burchak doskada ro`y beradi. Bu doska oq va qora shohmot maydonchalari yoki kataklarga bo`lingan. Jami shohmot doskasida 64ta katak: 32 oq va 32 qora.

**O`yin maqsadi** – dushmanlar qirolini maxsus “mot” yurishi bilan yo`qotish. Qaysi ishtirokchi birinchi bo`lib “mot”ni e`lon qilsa, u g`alaba qozongan bo`ladi

### O`yin qoidalaridan:

- shohmot o`yinini ikki nafar ishtirokchi o`ynaydi;
- yurishlar galma-gal bo`ladi;
- birinchi bo`lib oqlar yuradi;
- yurish galini o`tkazish va ikki marta yurish mumkin emas;
- shohmot donasiga o`yinchi qo`l tegizsa, shu dona bilan yurish kerak;
- agar donasini katakka joylashtirib, undan qo`lini olsa, yurish bajarildi, deb hisoblanadi, agar qo`lini olmasa, bu donani boshqa katakka joylashtirish mumkin;
- bir yurishda bitta dona yurgaziladi;
- o`zini donasi turgan katakchaga boshqa dona qo`yib bo`lmaydi, faqat raqibning donasini yiqitib, o`zini donasini qo`ysa bo`ladi,
- bir zarba-yurishda raqibning bitta donasini yiqitish mumkin,
- shohmotda, shashka kabi, raqibning donalarini yo`qotish shart emas.

“Yoshlikda olingen bilim toshga o`yilgan naqsh” - deydi dono xalqimiz. biz qanchalik erta yoshlarimizning sport turiga moyilliklarini tez va oson samarali yo`l bilan aniqlasak, ular shu

sport turining texnik-taktik, jismoniy va psixologik tayyorgarliklarini puxta egallaydi. Bunday salohiyatga ega yoshlar O'zbekiston kelajagining buyuk va porloq bo'lismiga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar**

1. Sport.uz net, www.sport.uz, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021 yil 14-yanvardagi PQ-4954-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining Xalq ta'limi tizimida shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish chora-tadbirlari to'g'risida 2021 yil 18 yanvardagi 12 sonli buyrug'i aynan, mакtab ta'lim tizimida asosiy vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan.
3. Chees.com, goldenpages.uz, daryo.uz, kun.uz, kitobxon.uz, INSTERNE.COM, "shaxmat olami" Mahmud Primqulov.